



## JINOIY-HUQUQIY NIZONI SUDGACHA HAL QILISH SHAKLI SIFATIDA YETKAZILGAN MULKIY ZARARNING O'RNI QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI TUGATISH.

**Adizov Alibek Oybek o'g'li**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14241807>


Hozirgi kunda aholining sud tizimidan noroziliklarining kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri sud majlislarining o'z vaqtida bo'lmayotgani, yoki bo'lmasa, sud protsessiga taklif etilgan shaxslarning, ya'ni taraflar yoxud ularning vakillari jarayon boshlanishini uzoq vaqt kutib qolishlari, umuman belgilangan sud majlislari boshqa kunga qoldirilishi kabi holatlar hisoblanadi. Bularning asosiy sababi sifatida sudlarning ish hajmi oshib ketganligi bilan baholash mumkin.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ham, 2023 yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 73.797 nafar shaxsga nisbatan 58.418 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2024 yilning o'tgan 9 oyi davomida 44 ming 758 ta jinoyat ishi va 97 ming 195 ta jinoyat ishi materiali, 449 ming 984 ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish, 164 ming 953 material ko'rib chiqilgan.

Lekin hozirgi kunda rivojlangan jahon hamjamiyatlari jinoyat ishlari bo'yicha sud-huquq sohasida ilg'or islohotlar amalga oshirilib, mazkur islohotlar natijasida umumyurisdiksiya sudlarida, xususan, jinoyat sudlarida ish hajmi sezilarli ravishda kamayib, ishlarni ko'rishda yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Jumladan, sudlarda sun'iy intellektdan keng foydalanilmoqda, sudgacha bosqichda hal qilish usullari takomillashtirilmoqda.

Endigi navbatda esa, zararning to'liq qoplanishi munosabati bilan nizoni sudgacha hal qilish instituti takomillashtirish hamda uning salbiy va ijobiy tomonlariga to'xtalamiz.

Zararning o'rni qoplangan taqdirda ko'rib chiqilayotgan jazo choralarini qo'llash to'g'risidagi masala sud tomonidan uni tayinlashning umumiy normalariga muvofiq va o'rni qoplangan zararning miqdorini, shuningdek ishning boshqa holatlarini hisobga olgan holda hal qilinadi. Masalan, JKning 55-moddasi birinchi qismining "b" bandiga asosan yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish jazoni yengillashtiruvchi holatlar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda zarar o'rnini qisman qoplash jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holat deb tan olinishi va yengilroq turdagi jazoni tayinlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin (JKning 57-moddasi). Bu yerda jazoni yengillashtiruvchi holat deb tan olinishi uchun zararning qanday qismining o'rni





qoplanishi kerak, degan savol vujudga keladi. Oliy sud Plenumining “Jazolarni liberallashtirish to‘g‘risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 21.05.2004 yildagi 4-son qarorining mazkur masala borasida so‘z boradi.

Mazkur Plenum qarorida o‘g‘irlik va firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning mulkini talon-toroj qilganlik uchun jinoiy javobgarlik talon-toroj summasi miqdoridan qat’i nazar kelib chiqadi. Biroq, talon-toroj miqdori bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan oshmagan har bir holda surishtiruv, tergov organlari va sudlar ayblanuvchining (sudlanuvchining) shaxsiga oid ma’lumotlarni hamda moddiy zararining qoplanganligini inobatga olgan holda jinoyat ishini Jinoyat kodeksining 65 va 66-moddalariga asosan tugatish masalasini muhokama etishi kerak.

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining qator moddalarida normalarida muayyan shart mavjud bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi hollarda mahkumga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning qo‘llanilishi istisno etiladi:

JK 167, 168, 170, 180, 181, 1811, 184, 1852, 1924, 19211-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun — jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zarar qoplangan taqdirda;

JK 132, 173, 175, 198, 202 va 233-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun — jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda.

Shuningdek, eng e’tiborli jihatlaridan biri qonun moddiy zarar qoplangan hollarda ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo tayinlanmasligi haqida Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalarida nazarda tutilgan shartlar qo‘llanilishi imkoniyatini mahkumning sudlanganlik holati bilan bog‘lamaydi. Bundan kelib chiqadiki, qonunda belgilangan mazkur huquqiy kafolatlar retsdiv jinoyatga, shu jumladan, muqaddam ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tab chiqqan shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jumladan Rossiya misolida oladigan bo‘lsak, yetkazilgan zarar jabrlanuvchilarga ixtiyoriy ravishda qoplanishi natijasida ko‘plab hollarda jinoiy ish qo‘zg‘atish rad etilib tamomlangan.

Jinoyatlar tufayli yetkazilgan zararni qoplash huquqiga fundamental ta’riflar berib, jahon hamjamiyati universal xarakterdagi yana bir xalqaro hujjat sifatida 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan chora-tadbirlarning minimal





standart qoidalarini (Tokio qoidalari) ishlab chiqdi. BMT Bosh Assambleyasining 45/1103 rezolyutsiyasi bilan. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralari orasida ular hukm chiqarishda ruxsat etilgan deb e'tirof etiladi: jabrlanuvchiga tovon to'lash, kompensatsiya to'lash (8.2.f-band), shuningdek, tiklash choralari. Ushbu hujjat BMTga a'zo davlatlarga milliy amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsning etkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash tashabbusi jinoiy ta'qibni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat protsessining har qanday bosqichida, sud maslahat xonasiga olib chiqilgunga qadar idrok etilishi va amalga oshirilishi lozim.

Shu bilan birga, bir muhim jihatga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Ya'ni jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi hamda jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsning etkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash tashabbusi esa uning tuzalish yo'liga o'tganligini hamda jinoyat maqsadiga erishish imkoni mavjudligiga dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023.Oliy Majlis Axborotnomasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. Rasmiy nashr. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 2016, 383 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi// <https://lex.uz/docs/111460>
4. Oliy sud Plenumining "Jazolarni liberallashtirish to'g'risidagi qonunni iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 21.05.2004 yildagi 4-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004 yil 21 maydagi "Yarashuv ishlari yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, 2002 y. 25 oktyabr.
6. Sahadinov S.M. Sud muhokamasida jinoyat-protsessual yarashuvni takomillashtirish muammolari: yurid. fan. nomzodi..... dissertatsiyasi// T. 2005. TDYUI.
7. <http://www.lex.uz> (O'z.R. qonun hujjatlari to'plami)





8. <http://www.gov.uz> (O'z.R. Hukumati portali)
9. <http://www.jstor.org>. (Huquqiy jurnallar to'plami)
10. <http://www.consultant.ru>
11. <https://ec.eurora.yeu>
12. <https://www.refworld.org>

